

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398417>

Kasimova Gulyar Axmatovna
Professor, TDIU

Kenjayeva Nigina Baxtiyor qizi
Magistrant, TDIU

Annotatsiya. Ushbu tezisda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarbligi, bugungi hayotimizda uning qay darajada muhimligi hamda yashil iqtisodiyotni tushuntirishdagi ilmiy qarashlar tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy masalalariga va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga e'tibor qaratilib ularga yechim taklif qilingan.

Kalit so'zlar. Yashil iqtisodiyot, ekologik tanqisliklar, iqtisodiy samaradorlik, tashil inqilob, yashil energiya, Xalqaro Savdo Palatasi ICC.

Yashil iqtisodiyot bu- ekologik xavf va ekologik tanqisliklar, hamda atrof – muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiyotni barqarorligiga erishilgan iqtisodiyotdir. Yashil iqtisodiy nazariyalar odamlar va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'lgan g'oyalarning keng doirasini o'z ichiga oladi. Yashil iqtisodchilarning ta'kidlashicha, barcha iqtisodiy qarorlar uchun asos qandaydir tarzda ekotizim bilan bog'liq bo'lishi kerak va tabiiy kapital va ekologik xizmatlar iqtisodiy ahamiyatga ega. Ushbu jumla siyosiy tomondan , yoki iqtisodiy jihatdan qaralganda, resurslarni tejash va qo'llanilayotgan manbalardan oqilona foydalangan holda, atrof – muhitga , ya'ni boshqa jarayonlarga zarar yetkazmagan holda yuqori darajali iqtisodiy samaradforlikka erishish demakdir.

Yashil iqtisodiyotning bir necha xil ta'riflari mavjud. 2011-yilda Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) o'zining “Yashil iqtisodiyotga o'tishning 10 ta sharti” da “yashil

iqtisodiyot” - bu “iqtisodiy o‘shish va ekologik mas’uliyat bir-birini mustahkamlovchi tarzda birgalikda ishlaydigan, taraqqiyot va ijtimoiy rivojlanish” deya ta’rif beradi.

Yashil iqtisodiyotning asosiy oqimga kirib borishining bir usuli bu mahsulot yoki biznesning barqarorlik darajasini ko‘rsatuvchi iste’molchilarga mo‘ljallangan yorliqlar bo‘ldi.

Global amaliyotda yashil iqtisodiyotnin beshta asosiy tamoyillari ustuvor hisoblanadi. Bular, fuqarolik hayotida:

- jamoatchilik ishtiroki
- ijtimoiy muloqot;
- xabardorlik;
- ochiqlik;
- javobgarlik.

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan quvvat oladigan adolatli iqtisodiyot g‘oyasi jozibali bo‘lsa-da, yashil iqtisodiyotning tanqidchilari talaygina. Ularning ta’kidlashicha, yashil iqtisodiyotning iqtisodiy o‘shishni atrof-muhit buzilishidan ajratishga urinishlari unchalik muvaffaqiyatli bo‘lmagan. Iqtisodiy o‘shishning asosiy qismi qayta tiklanmaydigan texnologiyalar va energiya manbalari hisobiga sodir bo‘ladi.

Dunyoni ushbu energiya manbalaridan ajratish kuch talab qiladi va u butunlay muvaffaqiyatli bo‘lmagan. Tanqidchilarga ko‘ra, yashil ish o‘rinlariga ijtimoiy adolat yechimi sifatida urg‘u berish ham noto‘g‘ri. Yashil energiya uchun xomashyo bir necha hollarda arzon ish haqi oladigan ishchilar tomonidan noqulay sharoitlarda qazib olingan noyob tuproq minerallaridan keladi.

Bunga misol qilib elektromobillarni keltirish mumkin, ularning akkumulyatorlari mo‘rt va shu bilan birga ular yomg‘ir o‘rmonlari va fuqarolar urushi bo‘lgan hududlardan qazib olingan xomashyodan tayyorlanishi mumkin.

Yashil iqtisodning yana bir tanqidi shundaki, u yechimlarga texnologik yondashuvga yo‘naltirilgan va shuning uchun uning bozorida texnologiyaga ega bo‘lgan kompaniyalar ustunlik qiladi. Yashil texnologiya muqobil energiya va yoqilg‘i manbalaridan barqaror qishloq xo‘jaligi va yovvoyi tabiatni saqlashgacha

bo'lgan keng ko'lamli ishlanmalar va texnikani nazarda tutadi. Umuman olganda, yashil texnologiyalar inson faoliyatining tabiiy muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga intiladi. Bu barqaror iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashi mumkin, ammo tanqidchilar yashil texnologiya yashil bo'lmagan muqobillarga qaraganda unchalik samarali emas deb aytishlari mumkin.

Yashil inqilob butun dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va samaradorligini sezilarli darajada oshirgan bir qator innovatsiyalarni nazarda tutadi. Bu dunyo aholisining sezilarli darajada o'sishiga va natijada ifloslanish va tabiiy resurslarning iste'mol qilinishiga olib keladi.

Shuningdek, mamlakatimizda ham yashil iqtisodiyot tushunchasi o'zining barqaror o'rni egallash arafasida turibdi. Buning tasdiqi sifatida, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 04.10.2019 – yildagi PQ-4477 qarorini aytishimiz mumkin. Ushbu qaror “2019-2030- yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash” to'g'risida” deb nomlanadi.

Unga ko'ra, mamlakatimiz tarkibiy o'zgarishlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni bir maromda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora- tadbirlarni amalgam oshirish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Albatta, har bir amalgam oshirilayotgan islohotlarda bir qancha muammolar mavjud va hu muammolar yashil iqtisodiyotni ham cheklab o'tmadi. Aytishimiz mumkinki, quyida sanalgan muammolar yashil iqtisodiyot taraqqiyoti uchun moliyaviy jihatdan ta'sirga ega:

- standartlashtirishning yo'qligi;

- o'tish xavfi;

- moliyaviy muammolar tufayli yashil iqtisodiyot yo'liga kirishda ikkilanish muammolar yechimi texnologiyaga asoslanganligi sababali, faqat texnologiyasi yuqori bo'lgan kompaniyalar gigimonligi.

Ushbu iqtisodiyotni o'z amaliyotida qo'llovchi va ushbu iqtisodiyotga kirishni xohlovchi kompaniyalar uchun aniq bir standartning mavjud emasligi, kategoriyalarning belgilanmaganligi ular o'rtasida tabaqalanishni yuzaga keltirishi

mumkin, bu uesa natijada, nosog'lom iqtisodiy raqobat atmosferasini yuzaga chiqaradi.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o'tishda kategoriya bo'lmagan holda, unga o'tish ham korxonlar uchun o'zining xavflilik darajasini sezilarli darajada namoyon qiladi.

Aytishimiz mumkinki, yashil iqtisodiyotni tanlagan korxonalarda moliyaviy jihatdan muammolar yuzaga kelganda, ularning faqat yuqori texnologiyalarda yechim topishi texnologik jihatdan layoqati past bo'lgan korxonlarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib texnologiyasi yuqori korxonalkar gigimonligiga sabab bo'lib qolishi mumkin.

Albatta, yuqori texnologiyaga ega bo'lish yaxshigina moliyaviy qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Ushbu muammoga yechim sifatida, korxonlarning ishlashida inson omilini kamaytiish hamda zamonaviy texnik qurilmalardan foydalanish muhim deb o'ylayman. Ushbu qaror moliyaviy taqchillikni oldini olish bilan bir qatorda korxonaning investitsion jozibadorligini oshiradi. Natijada, korxonaga investorlarni jalb qilish orqali uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin. Yuqorida sanalgan yechim, yashil iqtisodiyot va uning ishtirokchisi bo'lgan korxonlarning taraqqiy etishiga o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 04.10.2019 – yildagi PQ-4477 qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. International Journal of Green Economics.: Ms. Miriam Kennet. 1744p.
3. Comments on 'Green economics: setting the scene. Aims, context, and philosophical underpinnings of the distinctive new solutions offered by green economics':Jack Reardon.:Vol.1 No.3/4 ;,532-538.
4. Growing the green economy – globally.: Hazel Henderson:, Vol.1 No.3/4 276-298.
5. Urbanisation and global environmental change: new intergenerational challenges.: David Simon:., Vol.1 No.3/4 299-306.

6. Editorial: progress in Green Economics: ontology, concepts and philosophy.
Civilisation and the lost factor of reality in social and environmental justice .: Miriam
Kennet:, Vol.1 No.3/4 225-249.

